O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 8 - fevral 38-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 31 yanvardagi 48-10-0-Q/24-sonli qarorini ijrosi to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 31 yanvardagi “Toshkent tumanida poligon qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 48-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda Yer kodeksining 5-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 10, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 31 yanvardagi “Toshkent tumanida poligon qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi** 48-10-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani, “Chig‘atoy” mahallasi hududidagi davlat zaxirasidagi qishloqxo‘jaligida foydalanilmaydigan qishloq xo‘jaligi xaritasining 3771q-konturidan 0,52 gektar yer maydoni maxsus tezkor operatsiyalarni o‘tkazish, tog‘ va yo‘l harakati havfsizligi tayyorgarligi bo‘yicha poligon qurilishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

3. Buyurtmachiga:

Davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berilsin, hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o‘rnatilgan tartibda shartnoma tuzish;

Loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan
1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonasiga buyurtma berish;

Qurilsih sohasida hududiy nazorat inspeksiyasiga xabarnoma yuborish;

Mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishini inobatga olish vazifalari yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Toshkent tumni filiali (O.Xoldorov) mazkur qarorga muvofiq viloyat yer fondiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**